

Repetitormi yoki maktab o'qituvchisi?

Avvalo, bu ikki xil uslub egalarini ajratish, tarafkashlik qilish qo'pol xatolikdir. Zero, ularning umumiy nomi – ustoz. Shunchaki birlari – yo'l quruvchilar, ikkinchilari uni yamaydigan sozlovchilardir.

Har qaysi fan repetitori jamiyki sinflar majmuasini bir o'quv yiliga mo'ljallaydi. Bu yo'lda ular katta bilim va xotiraga, metin sabr va chidamga ega bo'lishi, qolaversa, bilimdon gipnozchi, yuksak intellektual kadr bo'lishi hamda kuchli raqobat ichra ko'karib ketishi joiz. Haqqa yarasha mehnat borligi uchun otanalar ularning bosh hamkoriga aylanishadi. Negaki yemoqning qusmog'i bor: o'quvchilari ham o'zlari kabi qattiq ijod qilishlarini talab qilishadi. Vaholanki, ikki tomon ham darsgacha, dars vaqti va darsdan keyingi aqliy, jismoniy zo'riqishlarni zimmasiga olib bu yo'lni tanlashadi. Mazkur kasb egalarining mehnatlarini Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham bot-bot minbarlarda ta'kidlab turishi bejiz bo'lmasa kerak.

Maktab o'qituvchilari, albatta, asosiy ishlarni: o'qish-yozish, partada o'tirish-turish, odob-axloq, eng muhimi, orzu qilishni, maqsadga erishish yo'li ilm ekanligini yillar davomida o'quvchilari shuuriga singdiradi. Toma-toma ko'l bo'lur, deydi xalqimiz. Dars jarayonidagi o'quv mashg'ulotlari ularning zehni oshiradi, nutqini to'g'rilaydi, sportga ham undaydi. Bir so'z bilan obrazli qilib aytganda, o'qituvchilar yerdan ko'kka chiqaruvchilardir. Arzimas haq evaziga haqiqatni o'rgatish ularga yarashadi. Demak, o'qituvchi 45 minutlik dars uchun tayyorlanadi. Shuning uchun o'qituvchi sixni ham, kabobni ham kuydirmay o'z ishiga layoqat bilan qaraydi. Faqat, afsuski, belgilab qo'yilgan rejim va strukturaga bo'ysunib "akvariumdagi baliq" bo'lishga majbur.

Bunday muhokamalar ("burga sababli ko'rpa yoqish") birovning ko'p pul topayotganligi, boshqa birovning bilim saviyasi raqobatbardosh emasligi ortidan kelib chiqmoqda, desak ayni muddao bo'lar edi.

Yakuniy so'z shuki, o'qituvchilar va repetitorlar tarixan bir butun mevali daraxtlardir. Baho qo'yguvchi xalqdir.

Saidova M.